

QO'SHTEPA TUMANIDA SEMINAR TASHKIL QILINDI

1

Qo'shtepa tumani axborot-kutubxona markazida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar uchun "Muvaffaqiyat psixologiyasi" mavzusida seminar tashkil qilindi.

Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan tashkil etilgan seminarda viloyat hokimining maslahatchisi S.Tongotarova, tuman hokimining maslahatchisi M.Mo'ydinova hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi rahbari D.G'aniyevlar ishtiroy etishdi.

Seminar mobaynida o'quvchilar o'rtasida kitob mutolaasi madaniyatini yanada rivojlantirish, shuningdek, huquqbuzarliklarni oldini olishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalarga batafsil to'xtalib o'tildi.

Tadbir so'ngida tumanda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda jonbozlik ko'rsatgan bir guruh mas'ullar "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#)

2023-03-14 08:17:36